«TASDIQLANGAN»
O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
"Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi"
davlat muassasasi
Farmakologiya qo'mitasi
«14» 07 2026 r. № 12

TIBBIYOTDA QO'LLANISHIGA DOIR YO'RIQNOMA
KONFUNDUS

Preparatning savdo nomi: Konfundus
Ta'sir etuvchi modda (XPN): karbidopa, levodopa
Dori shakli: tabletkalar
Tarkibi:
Har bir tabletka quyidagilarni saqlaydi:
faol moddalar: karbidopa 25 mg; levodopa 250 mg
yordamchi moddalar: qayta jelatinlangan kraxmal, mikrokristall sellyuloza (PH101), krospovidon XL, gidroksilpropilsellyuloza, mikrokristall sellyuloza (PH102), magniy stearati, tozalangan suv.
Ta'rifi: oq rangdan deyarli oq ranggacha, kapalak shaklidagi, bir tomonida chuqur siniq chizig'i va ikkinchi tomonida oddiy siniq chizig'i bo'lgan yassi tabletkalar.
Farmakoterapevtik guruhi: Nerv tizimi. Parkinsonga qarshi preparatlar. Dofaminergik vositalar. Dopa va uning hosilalari. Levodopa va L-dopa-dekarboksilaza ingibitori.
ATX kodi: N04BA02

Farmakologik xususiyatlari

Farmakodinamikasi

Ta'sir etish mexanizmi

Levodopa dofaminning o'tmishdoshi hisoblanadi va Parkinson kasalligida o'rinbosuvchi terapiya sifatida buyuriladi.
Karbidopa DOPA dekarboksilazaning periferik ingibitori hisoblanadi. Levodopaning dofaminga periferik metabolizmi oldini oladi, bu orqali dofamin ta'sir etuvchi miyaga tushadigan yuqoriroq dozani ta'minlaydi. Shu tufayli nojo'ya ta'sirlar takrorlanish tezligi va og'irlik darajasini kamaytirgan holda levodopaning yanada quyiroq dozasi qo'llanishi mumkin.

Farmakodinamik ta'sirlari

Konfundus parkinsonizmning ko'plab simptomlarini, ayniqsa, rigidlik va bradikineziyani bartaraf etish uchun foydali bo'lishi mumkin. U ko'pincha Parkinson kasalligi va sindromi bilan bog'liq tremor, disfagiya, so'lak oqish va postural noturg'unlikni davolashda yordam beradi.
Agar faqat birgina levodopani qabul qilishdan samara o'zgaruvchan bo'lsa, Parkinson kasalligi belgilari va simptomlari esa kun davomida bir maromda nazorat qilinmasa, Konfundus preparati bilan almashtirish, odatda, bunday o'zgarishlar kamayishiga olib keladi. Faqat birgina levodopani qabul qilish tufayli chaqiriladigan ayrim nojo'ya reaksiyalar paydo bo'lish ehtimolini qisqartirgan holda, Konfundus preparati ko'p sonli patsiyentlarga Parkinson kasalligi simptomlarini adekvat ravishda yengillatish imkonini beradi.

Farmakokinetikasi

Levodopa peroral qabul qilinganidan so'ng dekarboksilaza ingibitori bo'lmagan holatda, me'da-ichak yo'lidan tez, biroq notekis so'riladi. Asosan, dofaminga dekarboksillanish orqali metabollanadi, uning bir qismi noradrenalinga aylanadi, plazmadan yarim chiqarilish davri taxminan 1 soatni tashkil etadi. 30% gacha 3-O-metildopaga aylanadi, uning yarim chiqarilish davri 9 soatdan 22 soatgacha tashkil etadi. Levodopaning taxminan 80% 24 soat davomida, asosan, gomovanilin kislotasi va digidroksifenil-sirka kislotasi shaklida siydik bilan chiqariladi. 1% dan kamrog'i o'zgarishlarsiz chiqariladi.
Levodopa qon oqimiga tushgach, gematoensefalik to'siq orqali transportirovka qilish uchun boshqa neytral aminokislotalar bilan raqobatlashadi. Levodopa yo'l-yo'l tana neyronlariga

o'tganidan so'ng dofamingacha dekarboksillanadi, to'planadi va presinaptik neyronlardan bo'shatiladi. Miyaga o'tkazish uchun juda kam o'zgarmagan dori preparati tushadi, chunki levodopa me'da-ichak yo'lida va jigarda juda tez dekarboksillanadi. Periferik dekarboksillanish levodopaning terapevtik samaradorligini kamaytiradi, biroq, o'z navbatida, uning ko'plab nojo'ya ta'sirlari kamayishi uchun javob beradi. Shu sababli levodopa, odatda, karbidopa kabi dekarboksilazaning periferik ingibitori bilan birga qo'llaniladi, bu orqali xuddi shu terapevtik samaraga erishish uchun kamroq dozalar ta'minlanadi.
Levodopa bo'lmagan holatda, karbidopa peroral qabul qilinganidan so'ng me'da-ichak yo'lidan tez, biroq noto'liq so'riladi. Peroral dozadan so'ng, taxminan 50% siydikda aniqlanadi, bunda ushbu miqdorning taxminan 3% o'zgarmagan shaklda qoladi. Karbidopa gematoensefalik to'siq orqali o'tmaydi, biroq yo'ldosh orqali o'tadi va ko'krak sutida aniqlanadi. Preparat metabolizmi tez yuz beradi va deyarli butunlay o'zgarmagan preparat 7 soat davomida siydik bilan chiqariladi.
Karbidopa levodopaning dofamingacha periferik dekarboksillanishini ingibitsiya qiladi, biroq, u gematoensefalik to'siq orqali o'tmasligi tufayli levodopaning kamroq dozalari qabul qilinganida yaqqol ifodalangan ko'ngil aynishi va qusish hamda yurak urish maromi buzilishi kabi periferik nojo'ya ta'sirlarni kamaytirgan holda miyada dofaminning samarali darajalariga erishiladi.

Qo'llanishi
Parkinson kasalligi va sindromini davolash uchun mo'ljallangan.

Qo'llash usuli va dozalari
Dozalar
Konfundus preparatining optimal sutkalik dozasi har bir patsiyent uchun puxta titrlash orqali belgilanishi kerak. Konfundus preparati tabletkalari 1:10 nisbatda karbidopa va levodopani saqlaydi, bu har bir patsiyent uchun dozalarni aniq titrlash imkoniyatini ta'minlaydi.
Umumiy qoidalar
Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, kuniga 70 mg dan 100 mg gacha dozalarda karbidopa bilan periferik dopa-dekarboksilaza butunlay ingibirlanadi (to'yinadi). Ushbu miqdordan kamroq karbidopa qabul qiladigan patsiyentlarda ko'ngil aynishi va qusish ehtimoli ko'proq bo'ladi.
Konfundus preparatini qabul qilish vaqtida, levodopadan tashqari, dozalariga tuzatish kiritish talab qilinsa ham standart Parkinson kasalligiga qarshi preparatlarni qabul qilishni davom ettirish mumkin.
Karbidopa/levodopa kombinatsiasini qabul qilishda faqat levodopani qabul qilishdagiga nisbatan ham terapevtik, ham nojo'ya ta'sirlar tezroq namoyon bo'lishi tufayli patsiyentlar dozaga tuzatish kiritish davrida puxta kuzatilishi kerak. G'ayriixtiyoriy harakatlar, ayniqsa, blefarospazm ayrim patsiyentlarda ortiqcha dozaning erta diagnostik belgisi hisoblanadi.
Odatdagi boshlang'ich doza
Doza shifokor tomonidan kasallikka va patsiyentning davolashga reaksiyasiga asosan tanlanadi. 25/250 preparatning boshlang'ich dozasi kuniga 1 yoki 2 marta 1 tabletkani tashkil etadi. Biroq, ushbu doza patsiyentga kerakli karbidopaning optimal miqdorini ta'minlamasligi mumkin. Shu tufayli, zarur hollarda, optimal samaraga erishilgungacha har kuni yoki kunora 1/2 tabletkadan preparat qo'shiladi.
Samara birinchi kun, ba'zan esa birinchi dozadan keyin kuzatiladi. Preparatning to'liq samarasiga yetti kun davomida erishiladi.
Levodopa preparatlaridan o'tish
Preparat bilan davolash boshlangungacha eng kamida 12 soat oldin (ta'sir etish muddati uzaytirilgan levodopa preparatlari holatida 24 soat oldin) levodopani qabul qilishni to'xtatish kerak. Preparatning sutkalik dozasi levodopaning oldingi sutkalik dozasining taxminan 20% ta'minlashi kerak.
1500 mg dan ko'proq levodopani qabul qilayotgan patsiyentlar uchun preparatning boshlang'ich dozasi kuniga 3 yoki 4 marta 25/250 mg ni tashkil etadi.

Boshqa Parkinson kasalligiga qarshi vositalarni qabul qilayotgan patsiyentlar
Joriy ma'lumotlar Konfundus preparatini buyurishda, garchi ishlab chiqaruvchining tavsiyalariga asosan dozasiga tuzatish kiritilishiga to'g'ri kelsa ham boshqa Parkinson kasalligiga qarshi preparatlarni qabul qilish davom ettirilishi mumkinligidan dalolat beradi.
Quvvatlovchi terapiya
Zarur hollarda, dozani kuniga 8 tabletka maksimal dozaga erishilgungacha har kuni yoki kunora 1/2 tabletkaga yoki 1 tabletkaga oshirish mumkin. Karbidopaning 200 mg dan yuqori sutkalik dozalari qo'llanish tajribasi cheklangan.
Maksimal tavsiya etiladigan doza
Maksimal tavsiya etiladigan doza preparatning kuniga (2 g levodopa va 200 mg karbidopa) sakkizta tabletkasini tashkil etadi. Bu 70 kg tana vaznli patsiyent uchun bir kilogramm tana vazniga taxminan 3 mg karbidopa va 30 mg levodopani tashkil etadi.
Bolalar yoshidagi patsiyentlar
18 yoshdan kichik yoshdagi bolalarda Konfundus preparatining xavfsizligi va samaradorligi aniqlanmagan.
Keksa yoshdagi patsiyentlar
Ushbu preparatning keksa yoshdagi patsiyentlarda qo'llanishi katta tajribasi mavjud. Yuqorida keltirilgan tavsiyalar ushbu tajriba asosida olingan klinik ma'lumotlarni aks ettiradi.
Qo'llash usuli
Peroral qabul qilish uchun mo'ljallangan.
Agar tabletka o'ram idishidan olishda bo'linib ketsa, uni butun dozani qabul qilish mumkin bo'lgan holatda qabul qilish kerak. Agar bu mumkin bo'lmasa, bo'lingan tabletka qismlarini tashlab yuborish va o'ram idishidan boshqa tabletkani olish kerak.
Qisman dozani qabul qilish simptomlar yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Nojo'ya ta'sirlari
Konfundus preparatining tez-tez uchraydigan nojo'ya reaksiyalari dofaminning markaziy neyrofarmakologik faolligi bilan bog'liq. Ushbu reaksiyalarni, odatda, dozani pasaytirish orqali kamaytirish mumkin. Eng keng tarqalgan nojo'ya reaksiyalar diskineziya, shu jumladan xoreiformli, distonik va boshqa g'ayriixtiyoriy harakatlar va ko'ngil aynishidan iborat. Mushak tortishishi va blefarospazm dozani kamaytirish uchun erta belgilar bo'lishi mumkin.
Klinik tadqiqotlar hisobotlarida yoki postmarketing tajribasida qayd etilgan boshqa nojo'ya ta'sirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:
Infeksiyalar va invaziyalar: siydik yo'llari infeksiyalari (takrorlanish tezligiga: juda tez-tez).
Umumiy buzilishlar va dori yuborilgan joydagi reaksiyalar: sinkope, ko'krak qafasidagi og'riq, anoreksiya.
Yurak-qon tomir tomonidan buzilishlar: aritmiya va/yoki yurak urishi tezlashishi, ortostatik ta'sirlar, shu jumladan gipotenziv holatlar, yuqori arterial bosim, flebit.
Me'da-ichak yo'llari buzilishlar: qusish, me'da-ichak yo'lidan qon ketish, o'n ikki barmoq ichak yazvasi, diareya, so'lak qorayishi, dispepsiya, og'iz qurishi, achchiq ta'm, so'lak oqishi, disfagiya, bruksizm, hiqichoq, qorindagi og'riq va noqulaylik, ich qotishi, meteorizm, til achishi.
Qon va limfatik tizim tomonidan buzilishlar: leykopeniya, gemolitik anemiya va gemolitik xususiyatli bo'lmagan anemiya, trombotsitopeniya, neytropeniya.
Immun tizim tomonidan buzilishlar: angio shishi, eshakemi, qichishish, Shenleyn-Genox purpurasi.
Nerv tizimi tomonidan buzilishlar / Ruxiy buzilishlar: xavfli neyroleptik sindrom ("Qo'llanish mumkin bo'lmagan holatlar" bo'limiga qarang), bradikinetik holatlar ("yoqish-o'chirish" simptomi), bosh aylanishi, paresteziya, psixotik epizodlar, shu jumladan alahlash, gallyutsinatsiyalar va paranoid fikrlar, suitsidal xatti-harakatlar rivojlanishisiz yoki rivojlanishi bilan depressiya, demensiya, uyqu buzilishi, qattiq hayajonlanish, fikrlashda chalkashish, libido oshishi. Levodopa uyquchanlik bilan bog'liq va "juda kam hollarda" takrorlanish tezligi bilan

kunduzgi vaqtda haddan tashqari uyquchanlik hamda to'satdan uxlab qolish holatlari bilan o'zaro bog'liq.
Asteniya, fikrlash tiniqligi kamayishi, dezoriyentatsiya, ataksiya, sezuvchanlik yo'qolishi, qo'llar yuqori tremori, mushaklar spazmi, trizm, Gorner latent sindromi faollashuvi, uyqusizlik, bezovtalik, eyforiya, yiqilib tushish va yurish buzilishi.
Nafas olish tizimi, ko'krak qafasi va ko'ks oralig'i a'zolari tomonidan buzilishlar: hansirash.
Teri va teri osti to'qimalar tomonidan buzilishlar: alopetsiya, toshma, terning qorayishi.
Buyrak va siydik chiqarish yo'llari tomonidan buzilishlar: siydik qorayishi.
Tirishishlar kam holatlari qayd etilgan, biroq Konfundus preparati bilan sabab-oqibat aloqasi aniqlanmagan.
Moddalar almashinuvi va ovqatlanish tizimi tomonidan buzilishlar: tana vazni oshishi va yo'qotilishi, shish.
Alohida nojo'ya reaksiyalar ta'rifi
Dofamin dizregulyatsiya sindromi (DDS) karbidopa/levodopa qabul qilgan ayrim patsiyentlarda kuzatiladigan bog'liqlikka moyillik bilan namoyon bo'ladi. Ushbu kasallik bo'lgan patsiyentlar dofaminergik preparatlarni harakatlanish simptomlarini nazorat qilish uchun kerakli dozalardan yuqori dozalarda suiiste'mol qilish kompulsiv xususiyatni namoyish qiladilar, bu ayrim holatlarda og'ir darajali diskineziyaga olib kelishi mumkin ("Maxsus ko'rsatmalar" bo'limiga qarang).
Impulsiv xatti-harakatni nazorat qilish tizimi buzilishi
Qimor o'yinlariga patologik qiziqish, libido oshishi, giperseksuallik, kompulsiv xarajatlar yoki xaridlar, keragidan ortiqcha yeb qo'yish va impulsiv ochofatlik dofamin agonistlari va/yoki levodopa saqlaydigan boshqa dofaminergik preparatlar, shu jumladan Konfundus preparatini qabul qilayotgan patsiyentlarda paydo bo'lishi mumkin ("Maxsus ko'rsatmalar" bo'limiga qarang).
Teri va teri osti to'qimalar tomonidan buzilishlar: qon quyilishlari, yuqori ko'p terlashlik.
Ko'rish qobiliyati buzilishlari: diplopiya, ko'rish maydoni xiralashishi, ko'z qorachig'i kengayishi, okulogir kriz.
Buyrak va siydik chiqarish yo'llari tomonidan buzilishlar: siyish kechikishi, qovuq bo'shligi, priapizm.
Umumiy buzilishlar va dori yuborilgan joydagi reaksiyalar: kuchsizlik, behushlik holati, charchoqlik, bosh og'rishi, ovoz xirillashi, lohaslik, isitma ko'tarilishi, asabiylashish, atipik nafas olish, xavfli melanoma ("Qo'llanish mumkin bo'lmagan holatlar" bo'limiga qarang).

Qo'llanish mumkin bo'lmagan holatlar
Monoaminoksidaz (MAO) noselektiv ingibitorlari Konfundus preparati bilan birga qo'llanishi mumkin emas. Ushbu ingibitorlar qo'llanishi Konfundus preparatini qabul qilish boshlangungacha eng kamida ikki hafta oldin bekor qilinishi kerak. Konfundus preparati B turidagi MAO ga nisbatan selektiv bo'lgan MAO ingibitorlari (masalan, gidroxlorid selegilin) bilan ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etiladigan dozada bir vaqtda qo'llanishi mumkin ("Dorilarning o'zaro ta'siri" bo'limiga qarang).
Konfundus preparati tarkibidagi faol moddalarga yoki har qanday yordamchi moddaga o'ta yuqori sezuvchanlik.
Konfundus preparati tor burchakli glaukoma bo'lgan patsiyentlarga qo'llanishi mumkin emas.
Levodopa xavfli melanomani faollashtirishi mumkinligi tufayli u terining taxminiy tashxislanmagan kasalliklari yoki anamnezda melanoma bo'lgan patsiyentlarga qo'llanilmasligi kerak.
Og'ir darajali psixozlar bo'lgan patsiyentlarga qo'llanilmaydi.
18 yoshgacha bo'lgan bolalarga qo'llanishi mumkin emas, chunki 18 yoshgacha bo'lgan bolalarda Konfundus preparatining xavfsizligi va samaradorligi aniqlanmagan.

Dorilarning o'zaro ta'siri

Quyidagi dori preparatlari Konfundus preparati bilan bir vaqtda qo'llanilgan holatlarda ehtiyotkorlikka rioya etilishi kerak.

Gipotenziv preparatlar

Hozirda gipotenziv preparatlar qabul qilayotgan patsiyentlarni davolashga Konfundus preparati qo'shilgan holatlarda postural gipotenziya paydo bo'lishi mumkin. Gipotenziv preparat dozasiga tuzatish kiritish talab qilinishi mumkin.

Antidepressantlar

Tritsiklik antidepressantlar bir vaqtda qo'llanilganida nojo'ya reaksiyalar, shu jumladan gipertoniya va diskineziya to'g'risida kam hollarda ma'lum qilingan (MAO ingibitorlarini qabul qilayotgan patsiyentlar uchun "Qo'llanish mumkin bo'lmagan holatlar" bo'limiga qarang).

Antixolinergetiklar

Antixolinergetiklar absorbsiyaga va shu tarzda patsiyent reaksiyasiga ta'sir etishi mumkin.

Temir preparatlari

Tadqiqotlar temir sulfat yoki temir glyukonat bilan birga qabul qilinganida karbidopa va/yoki levodopaning biokiraolishligi kamayishidan dalolat beradi.

Boshqa preparatlar

Hozirgi vaqtgacha standart Parkinson kasalligiga qarshi preparatlardan bir vaqtda foydalanishni istisno qiladigan o'zaro ta'sirlarning hech qanday belgilari aniqlanmagan.

Dofamin D_2-retseptorlari antagonistlari (masalan, fenotiazinlar, butirofenonlar va risperidon) hamda izoniazid levodopaning terapevtik samaradorligini kamaytirishi mumkin. Fenitoin va papaverin Parkinson kasalligida levodopaning davolash ta'sirini bartaraf etishi to'g'risida ma'lum qilingan. Ushbu preparatlarni Konfundus preparati bilan birga qabul qilayotgan patsiyentlar terapevtik samara yo'qolishi yuzasidan puxta kuzatilishi kerak.

Konfundus preparatidan dofamin-tugatuvchi agentlar (masalan, tetrabenazin) yoki monoaminlar zaxiralarini tugatuvchi sifatida ma'lum bo'lgan boshqa preparatlar bilan birga foydalanish tavsiya etilmaydi.

Selegilin va karbidopa-levodopa kombinatsiyasi bilan birga terapiya og'ir darajali ortostatik gipotenziyaga olib kelishi mumkin, u birgina karbidopa-levodopa kombinatsiyasini qabul qilish bilan bog'liq bo'lmasligi mumkin ("Qo'llanish mumkin bo'lmagan holatlar" bo'limiga qarang).

Levodopa muayyan aminokislotalar bilan raqobatlashishi tufayli yuqori oqsil tarkibli parhezdagi ayrim patsiyentlarda Konfundus preparatining so'rilishi yomonlashishi mumkin.

Konfundus preparati bilan antatsidlar bir vaqtda qo'llanilganida levodopaning biokiraolishligiga ta'siri o'rganilmagan.

Konfundus preparatini piridoksin gidroxloridini (B6 vitaminini) saqlaydigan vitaminlar preparatlarini bir vaqtda qabul qilayotgan Parkinson kasalligi va sindromi bo'lgan patsiyentlarga buyurish mumkin.

Maxsus ko'rsatmalar

Konfundus preparati dori preparatlarini qabul qilish bilan chaqirilgan ekstrapiramid buzilishlarni davolash uchun tavsiya etilmaydi.

Konfundus preparati og'ir darajali yurak-qon tomir yoki o'pka kasalliklari, bronxial astma, buyrak, jigar yoki endokrin kasalliklari yoxud anamnezda yazva kasalligi bo'lgan patsiyentlarga (me'da-ichak yo'li yuqori bo'limlarida qon ketishlar rivojlanish ehtimoli sababli) ehtiyotkorlik bilan buyurilishi kerak.

Konfundus preparati anamnezda miokard infarkti bo'lgan, qoldiq yurak bo'lmasi tugunli yoki yurak qorinchasi aritmiyalari mavjud patsiyentlarga buyurilishida ehtiyotkorlikka rioya etilishi kerak. Bunday patsiyentlarda dozaga dastlabki tuzatish kiritilishi davri davomida yurak funksiyasi alohida ehtiyotkorlik bilan nazorat qilinishi kerak.

Levodopani qabul qilish uyquchanlik va to'satdan uxlab qolish holatlari bilan bog'liq bo'lgan. Kundalik faoliyat vaqtida, ayrim holatlarda anglamagan holda yoki ogohlantiruvchi belgilar paydo bo'lmagan holda to'satdan uxlab qolish to'g'risida juda kam hollarda ma'lum qilingan.

Patsiyentlar bu haqda xabardor bo'lishlari va levodopa bilan davolanish vaqtida avtotransportni boshqarish yoki boshqa mexanizmlar bilan ishlash paytida ehtiyotkor bo'lishlari kerak. Uyquchanlik va/yoki to'satdan uxlab qolish holatlarini boshdan kechirgan patsiyentlar avtotransportni boshqarish yoki boshqa mexanizmlar bilan ishlashdan saqlanishlari kerak. Bundan tashqari, dozani kamaytirish yoki terapiyani to'xtatish ko'rib chiqilishi mumkin.

Barcha patsiyentlar psixik holat o'zgarishlari rivojlanishi, suitsidal moyilliklar bilan depressiyalar va boshqa jiddiy noijtimoiy xatti-harakatlar yuzasidan puxta nazorat qilinishi kerak. Psixozlar bo'lgan patsiyentlarni ehtiyotkorlik bilan davolash kerak.

Diskineziya oldin faqat levodopa qabul qilgan patsiyentlarda paydo bo'lishi mumkin, chunki karbidopa ko'p miqdorli levodopaning miyaga kirishiga imkon beradi va buning natijasida ko'proq dofamin hosil bo'ladi. Diskineziyaning paydo bo'lishi dozalash kamaytirilishini talab qilishi mumkin.

Levodopa kabi Konfundus ham g'ayriixtiyoriy harakatlarni va psixik buzilishlarni chaqirishi mumkin. Anamnezida og'ir darajali g'ayriixtiyoriy harakatlar yoki psixotik holatlar bo'lgan patsiyentlar faqat levodopa bilan davolanish vaqtida davolash Konfundus preparatiga almashtirilganida puxta kuzatilishi kerak. Ushbu reaksiyalar levodopa qabul qilinganidan so'ng miyada dofamin darajasi oshishi bilan bog'liq deb hisoblanadi va Konfundus preparatidan foydalanish qaytalanishni chaqirishi mumkin. Parkinson kasalligiga qarshi preparatlar qo'llanishi to'satdan bekor qilinganida mushak rigidligini, yuqori tana haroratini, psixik o'zgarishlarni va zardobda kreatinfosfokinazaning yuqori konsentrasiyasini o'z ichiga oluvchi xavfli neyroleptik sindromni eslatuvchi sindrom to'g'risida ma'lum qilingan. Shunday qilib, dozani har qanday keskin kamaytirish yoki Konfundus preparati qo'llanishini to'xtatish, ayniqsa, neyroleptiklarni ham qabul qilayotgan patsiyentlarda puxta nazorat qilinishi kerak.

Fenotiazinlar yoki butirofenonlar kabi psixo-faol preparatlar bir vaqtda qabul qilinishini ehtiyotkorlik bilan amalga oshirish, patsiyentni esa Parkinson kasalligiga qarshi samara yo'qolishi yuzasidan puxta kuzatish kerak. Anamnezida tirishishlar bo'lgan patsiyentlarni ehtiyotkorlik bilan davolash kerak.

Levodopa holatidagi kabi uzoq vaqtli terapiyada jigar funksiyalarini, qon ketishlar, yurak-qon tomir va buyrak funksiyalarini vaqti-vaqti bilan tekshirib turish tavsiya etiladi.

Surunkali keng burchakli glaukoma bo'lgan patsiyentlarni Konfundus preparati qo'llanishi orqali ko'z ichki bosimi yaxshi nazorat qilinayotgan va patsiyent terapiya vaqtida ko'z ichki bosimi o'zgarishlari yuzasidan puxta kuzatilayotgan sharoitda ehtiyotkorlik bilan davolash kerak.

Agar umumiy anesteziya talab qilinsa, Konfundus preparati bilan terapiyani patsiyentga suyuqliklar va dori preparatlarini peroral qabul qilishga ruxsat berilgungacha davom ettirish mumkin. Agar terapiyani vaqtincha to'xtatish talab qilinsa, Konfundus preparatini qabul qilish peroral preparatlarni oldingi rejimdagidek sutkalik dozada qabul qilishga ruxsat berilishi bilan qayta tiklanishi mumkin.

Epidemiologik tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, Parkinson kasalligi bo'lgan patsiyentlar umuman aholiga nisbatan melanoma rivojlanishining yuqoriroq (taxminan 2-6 baravar yuqori) xavfiga ega bo'ladilar. Kuzatilgan yuqori xavf Parkinson kasalligi sababli yoki Parkinson kasalligini davolash uchun qo'llaniladigan dori preparatlari kabi boshqa omillar bilan chaqirilganligi aniq emas. Shu tufayli patsiyentlarga va kasallik tarqatuvchilarga har qanday ko'rsatkichlarda Konfundus preparatidan foydalanishda muntazam ravishda melanoma monitoringini o'tkazish tavsiya etiladi. Aslida, terining davriy tekshiruvlari tegishli malakaga ega mutaxassislar (masalan, dermatologlar) tomonidan bajarilishi kerak.

Laboratoriya testlari

Odatda, qonda mochevina azoti, kreatinin va siydik kislotasi tarkibi Konfundus preparati qabul qilinganida faqat levodopa qabul qilingandagiga nisbatan kamroq bo'ladi. Vaqtincha buzilishlar qonda mochevina yuqori darajalarini, aspartataminotransferazalar (AST), alaninaminotransferazalar (ALT), laktatdigidrogenazalar (LDG), bilirubin va ishqorli fosfatazani o'z ichiga oladi.

Gemoglobin, gematokrit kamayishi, qonda yuqori darajali glyukozalar va leykotsitlar to'g'risida ma'lum qilingan, siydikda bakteriyalar va qon mavjudligi qayd etilgan.
Kumbs ijobiy testlari Konfundus preparati qabul qilinganida ham, faqat birgina levodopa qabul qilinganida ham qayd etilgan.
Siydikda ketonni o'lchash uchun test-chiziqlardan foydalanilganda Konfundus preparati soxta ijobiy natijaga olib kelishi mumkin va ushbu reaksiya siydik qaynatilganida o'zgarmaydi. Glyukozooksidaz usullaridan foydalanish glyukozuriyada soxta salbiy natijalar berishi mumkin.
Dofamin dizregulyatsiya sindromi (DDS) karbidopa/levodopa kombinatsiyasi bilan davolanayotgan ayrim patsiyentlarda kuzatiladigan mahsulotdan haddan tashqari foydalanishga olib keladigan bog'liqlikka moyillik bilan namoyon bo'ladi. Davolashni boshlashdan oldin patsiyentlar va ularga qaraydigan shaxslar dofamin dizregulyatsiya sindromi (DDS) rivojlanish potensial xavfi to'g'risida ogohlantirilishi kerak ("Nojo'ya ta'sirlari" bo'limiga qarang).
Impulsli xatti-harakatni nazorat qilish buzilishlari
Patsiyentlar impuls nazorati buzilishlari rivojlanishi yuzasidan muntazam kuzatib borilishi kerak. Patsiyentlar va ularga qaraydigan shaxslar dofamin agonistlarini va/yoki levodopani o'zida saqlaydigan boshqa dofaminergik preparatlarni, shu jumladan Konfundus preparatini qabul qilayotgan patsiyentlarda impulsli xatti-harakatni nazorat qilish buzilishlari, shu jumladan qimor o'yinlariga patologik qiziqish, libido oshishi, giperseksuallik, kompulsiv xarajatlar yoki xaridlar, keragidan ortiqcha yeb qo'yish va impulsiv ochofatlik simptomlari kuzatilishi mumkinligi to'g'risida xabardor bo'lishlari kerak. Agar bunday simptomlar rivojlansa, davolashni qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi.
Homiladorlik va laktatsiya davrida qo'llanishi
Homiladorlik
Garchi Konfundus preparatining ayollarda homiladorlikka ta'siri noma'lum bo'lsada, levodopa hamda karbidopa va levodopa kombinatsiyasi quyonlarda ichki a'zolar va suyaklar rivojlanish nuqsonlarini chaqirgan. Shunday qilib, Konfundus preparatining bola tug'ish potensiali bo'lgan ayollarda qo'llanishi preparatning kutiladigan foydalari va homilador bo'lgan holatda xavf ehtimollari solishtirib chiqilishini talab qiladi.
Laktatsiya
Karbidopaning ona sutiga o'tishi noma'lum. Parkinson kasalligi bo'lgan bir emizuvchi ona ishtirokida o'tkazilgan tadqiqotda levodopaning odam ko'krak sutiga o'tishi to'g'risida ma'lum qilingan. Ko'plab preparatlar ko'krak sutiga o'tishi va bolalarda jiddiy nojo'ya reaksiyalar rivojlanish ehtimoli tufayli Konfundus preparatining ona uchun muhimligi e'tiborga olingan holda, ko'krakdan emizishni to'xtatish yoki preparat qo'llanishini bekor qilish kerakligi to'g'risida qaror qabul qilish kerak.
Avtotransportni va boshqa mexanizmlarni boshqarish qobiliyatiga ta'siri
Dori preparatlari qo'llanishiga yakka tartibdagi reaksiyalar bir-biridan farq qilishi mumkin va levodopa qabul qilinganida ma'lum qilingan muayyan nojo'ya ta'sirlar ayrim patsiyentlarning transport vositasini boshqarish va boshqa mexanizmlardan foydalanish qobiliyatiga ta'sir etishi mumkin. Levodopa bilan davolangan va uyquchanlik va/yoki to'satdan uxlab qolish holatlarini boshdan kechirgan patsiyentlar, bunday takrorlanuvchi holatlar va uyquchanlik hal qilingunigacha transport vositasini boshqarishdan yoki hushyorlik buzilishi o'zi uchun ham, boshqalar uchun ham xavf tug'dirishi, jiddiy jarohatlarga yoki o'lim holatiga olib kelishi mumkin bo'lgan tadbirlarda ishtirok qilishdan (masalan, ishlab turgan mashinalar) saqlanishlari kerakligi to'g'risida xabardor bo'lishlari kerak ("Maxsus ko'rsatmalar" bo'limiga qarang)

Dozaning oshirib yuborilishi
Konfundus preparati bilan kuchli doza oshirib yuborilishini davolash, asosan, levodopa kuchli dozasi oshirib yuborilishini davolash bilan bir xil, biroq piridoksin Konfundus preparati ta'sirining bekor qilinishiga nisbatan samarali bo'lmaydi. EKG monitoringini boshlash kerak va patsiyent aritmiya rivojlanish ehtimoli yuzasidan diqqat bilan kuzatilishi kerak; zarur hollarda tegishli antiaritmik terapiya buyurilishi kerak. Patsiyent, Konfundus preparatidan tashqari,

boshqa dori preparatlarini qabul qilganligi ehtimolini hisobga olish kerak. Hozirgi vaqtgacha bironta ham dializ holati qayd etilmagan, tegishli ravishda, uning doza oshirib yuborilishini davolash uchun ahamiyati ma'lum emas.
Levodopaning yakuniy yarim chiqarilish davri karbidopa ishtirokida taxminan ikki soatni tashkil etadi.

Ishlab chiqarish shakli
10 tabletkadan Alu/Alu blisterda. 10 blisterlardan tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomasi bilan birga karton o'ramda.

Saqlash sharoiti
Quruq, yorug'likdan himoyalangan joyda, 25°C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlansin.
Bolalar ololmaydigan joyda saqlansin.

Yaroqlilik muddati
3 yil.
Yaroqlilik muddati tugaganidan so'ng qo'llanilmasin.

Dorixonalardan berilish tartibi
Retsept bo'yicha.

Ishlab chiqaruvchi
Kusum Healthcare Pvt. Ltd.

Ishlab chiqarish manzili
SP-289(A), RIICO Industrial Area, Chopanki, Bhiwadi, Dist. Alwar (Rajasthan), Hindiston.

O'zbekiston Respublikasi hududida dori preparatlarining sifati bo'yicha e'tirozlar (takliflar)ni qabul qiluvchi tashkilot nomi va manzili:
"BARAKA DORI FARM" MChJ XK
100022, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Xalqa Yo'li ko'chasi, 91-uy.
Tel.: +998 (78) 150 97 97; +998 (93) 388 87 82;
Faks: +998 (78) 1509787
E-mail: pv@kusum.uz
Web-sayt: kusum.uz